

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.B.22.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV SHUHRATJON SOLIJONOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSI FLORASIDAGI *POA* L.  
(*POACEAE*) TURKUMI (TAKSONOMIK TARKIBI,  
GEOGRAFIYASI VA EKOLOGIYASI)**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abdullayev Shuhratjon Solijonovich**

Farg‘ona vodiysi florasidagi Poa L. (Poaceae) turkumi (taksonomik tarkibi, geografiyasi va ekologiyasi) ..... 3

**Абдуллаев Шухратжон Солижонович**

Род Poa L. (Poaceae) во флоре Ферганской долины (таксономический состав, география и экология) ..... 21

**Abdullaev Shukhratjon Solijonovich**

The genus Poa L. (Poaceae) in the flora of the Fergana Valley (taxonomic composition, geography and ecology) ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.B.22.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV SHUHRATJON SOLIJONOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSI FLORASIDAGI *POA* L.  
(*POACEAE*) TURKUMI (TAKSONOMIK TARKIBI,  
GEOGRAFIYASI VA EKOLOGIYASI)**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan - 2026**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/B580 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich**  
biologiya fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponentlar:**

**Xamrayeva Dilovar Tolibdjonovna**  
biologiya fanlari doktori

**Mahmudov Valijon**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.22.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 106107, Namangan shahri. Boburshox ko'chasi. 161-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-25-01), faks (+99869) 228-25-02, E-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 106107, Namangan shahri. Boburshox ko'chasi. 161-uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-25-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi №\_\_\_\_\_ -raqamli reestr bayonnomasi)

**A.E.Zaynabiddinov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
b.f.d., professor

**X.R.Xoshimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo'yicha  
PhD

**D.B. Dehqonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi b.f.d.,  
dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo bo‘ylabda biologik xilma-xillikning 36 ta “qaynoq nuqtalari” (biodiversity hotspots) aniqlangan bo‘lib, ular Yer yuzasining atiga 2,3-% qismini egallaydi. Shuningdek, hududlarda yo‘qolib ketish xavfi ostidagi aksariyat endem va kamyob o‘simlik turlari to‘plangan. Bunday «qaynoq nuqtalar»ga floristik xilma-xillik va endemizmning o‘ta yuqori darajasi bilan ajralib turadigan Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog‘ tizmalari kiradi. Shunga ko‘ra, global va mintaqaviy biologik xilma-xillikni saqlab qolish, tabiiy landshaftlarga antropogen omillar ta‘sirini baholash hamda xalqaro miqyosdagi ilmiy hamkorlikni rivojlantirish zamonaviy ekologik strategiyaning ustuvor yo‘nalishlarida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda hozirgi globallashuv sharoitida iqlim o‘zgarishiga sezgir, tabiiy landshaftlari qisqarib borayotgan hamda antropogen bosim yuqori darajada kuzatilayotgan hududlarda o‘simliklar jamoalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlari asosida ilmiy ishlar olib borilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda demografik o‘sish va xo‘jalik faoliyatining kengayishi natijasida tabiiy ekotizimlar maydoni sezilarli ravishda kamayib, agro- va urbanolandshaftlar ulushi ortib bordi. Bu esa flora tarkibi va populyatsiyalar barqarorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, biologik xilma-xillikni saqlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, antropogen bosim ostidagi tabiiy flora elementlarini chuqur o‘rganish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish bugungi kunning ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib Respublikamizda O‘zbekiston milliy florasining yangilangan nashrini tayyorlash, o‘simlik turlarini to‘r tizimli (grid) asosda kartografik tasvirlash, adventiv va invaziv turlar monitoringini kuchaytirish hamda Farg‘ona vodiysi florasini bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida raqamli platforma asosida tizimlashtirishga qaratilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019–2028 yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi” tug‘risidagi Qarori<sup>1</sup>, bo‘yicha *Poa* turkumi vakillarining hozirgi taksonomik xilma-xilligi va fitogeografik xususiyatlarini o‘rganish, ularning areallarini GIS xaritalash va bioiqlim modellashtirish O‘zbekiston florasini jadal kompleks o‘rganish kontekstida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-sonli “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 82-I-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konventsiyaga qo‘shilishi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-sonli ”O‘simlik va hayvonot dunyosining davlat hisobini yuritish, ulardan foydalanish hajmi va davlat kadastri to‘g‘risida”gi va 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-sonli “O‘zbekiston

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019–2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

Respublikasining Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va unga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo miqyosida *Poa* 580 dan ortiq turni o'z ichiga olgan Poaceae oilasining yirik polimorf turkumlaridan biridir. Turkum birinchi bo'lib, 1753-yilda Karl Linney tomonidan ta'riflangan. Xorijiy olimlar tomonidan turkum turlarining morfologik tadqiqotlari bo'yicha tadqiqotlar M.V.Олонова (2016), L.G.Gillespie and R.J.Soreng (2015), R.J.Soreng (2007), G.H.Zhu et al. (2006), L.Alkan (2020). Turlarni fitogeografiyasiga oid ma'lumotlar С.А.Абдулина (1999), Г.А. Лазьков и Г.Т.Султанова (2014), М.В.Олонова (2016). Molekulyar tadqiqotlar esa L.G.Gillespie (2005), J.R.Hughes et al. (2003), Qing et al. (2012), Linna et al. (2020), Soreng et al.(2020), Wei et al. (2025) kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan.

O'rta Osiyo hududida tarqalgan *Poa* turkumi va umuman Poaceae oilasining asosiy taksonomik natijalari С.А.Невский (1934), В.П.Дробов (1941), Н.Г.Никифоров (1968), Н.Н.Цвелева (1976) va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston florasida taksonomik turlar bo'yicha tadqiqotlar A.J.Ibragimov (2010), K.Sh.Tojibayev (2010), F.O.Xasanov (2015) U.X.Qodirov (2020), T.X.Aromov (2023) va boshqalar, shuningdek, O'zbekistonning ma'muriy hududlari bo'yicha davlat kadastr doirasida olib borilgan izlanishlar (K.Tojibayev va boshqalar., 2019, 2020, 2024; N.Beshko va boshqalar., 2024) natijasida *Poa* turkumiga mansub ayrim turlar xilma-xilligi va zamonaviy geografik tarqalishi haqida muhim ma'lumotlar to'plangan.

Tadqiqot hududining florasida bo'yicha Б.Федченко (1915), М.Арифханова (1965), Т.Рахимова (1982), К.Тојибайев (2002, 2010), Х.Хошимов (2023) va boshqa olimlar tomonidan Farg'ona vodiysini o'rganishga qaratilgan floristik, geobotanik tadqiqotlar yoritilgan. Biroq, yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari Farg'ona vodiysida tarqalgan *Poa* turlarining xilma-xilligi, taksonomiyasi, geografiyasini ochib bera olmaydi. Shunday ekan, Farg'ona vodiysidagi *Poa* tur tarkibini aniqlash, tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalarini yaratish hamda keng ko'lamdagi natijalarni amalga oshirish ustuvor ilmiy-amaliy qiymatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Namangan davlat universitetining "Farg'ona vodiysi bioxilma-xilligini muhofazasi va ulardan barqaror foydalanishning ilmiy asoslari" hamda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti Molekulyar Filogeniya laboratoriyasining "Hayot daraxti: O'zbekiston bir urug'pallali o'simliklari" davlat dasturi hamda institutning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F5-FA-0-64792 "O'zbekiston florasidagi polimorf

oilalarning taksonomik reviziyasi” (2021–2025 yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan *Poa* turkumiga kiruvchi turlarning taksonomik tarkibini aniqlash, konspektini tuzish va keng ko‘lamli tahlillarni amalga oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Gerbariy namunalarining tanqidiy tahlili, zamonaviy raqamli resurslar va yangi maydon tadqiqotlari asosida Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan *Poa* turkumiga mansub turlarning taksonomik tarkibini aniqlash va ularning izohli konspektini tuzish;

dala sharoitida tirik o‘simlik namunalari asosida morfologik belgilarni tahlil qilish;

tadqiqot hududida turlar tarqalishini xaritalash asosida fitogeografik tahlillarni amalga oshirish;

turli iqlim ssenariylarida ayrim turlarni potensial tarqalish maydonlarini bioiqlimiy modellashtirish;

turlar bo‘yicha molekulyar-genetik yondashuvlar asosida filogenetik tadqiqotlarni amalga oshirish;

geografik bog‘langan ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda olingan natijalarni GMOCA va GBIF platformalariga integratsiya qilish orqali ularning ochiqligi va global botanika tadqiqotlarida keyingi foydalanilishini ta‘minlash.

**Tadqiqotning ob‘ekti** Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan *Poa* turkum turlari, yirik gerbariy fondlarida (TASH, MW, TK va boshqa) saqlanayotgan gerbariy namunalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Turlarni taksonomiyasi, morfologiyasi, fitogeografiyasi va bioiqlimiy modellashtirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada floristik tadqiqotlarning marshrutli va yarim statsionar usullari, turlarni aniqlashda geografik-taqqoslash hamda morfologik tahlil, shuningdek, zamonaviy kartografik yondashuvlar va bioiqlimiy modellashtirish usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quydagilardan iborat:

birinchi marta, Farg‘ona vodiysida florasida tarqalgan *Poa* turkumining 17 turdan iborat taksonomik tarkibi aniqlangan va izohli konspekti tuzilgan;

O‘zbekiston florasida *Poa tianshanica* (Regel) Hack. ex O.Fedtsch. turi bilan boyitildi, 6 ta turlarning 25 dan ortiq yangi o‘shish maydonlari aniqlangan;

tirik o‘simlik namunalari asosida olib borilgan morfologik tadqiqotlar natijasida «O‘zbekiston florasida»ning yangi nashri uchun 21 ta yangi diagnostik belgi kiritish hamda 15 ta belgini tahrirlash zarurligi asoslab berilgan;

ilk bor xloroplast genomi tahlili asosida plastid genomining doiraviy xaritasi va *Poa* turkumiga mansub turlarning filogenetik daraxti tuzilgan.

Ilk bor genom tarkibida *ycf3*, *clpP*, *atpF*, *rpoC1*, *rpl2*, *ndhB*, *ndhA*, *petB*, *petD*, *rpl16*, *rps16*, *rps12*, *psbA*, *matK*, *ycf3*, *rpoB* genlar mavjudligi va nukleotidlarning eng yuqori o‘zgaruvchanligi *rps16/trnQ-UUG*, *atpF/atpH*, *rps3/rpl22*, *trnK-UUU/rps16*, *rps15/ycf1*, *petA/psbJ/psbA*, *trnGCC*, *trnR-UCU/atpA*, *atpA/atpF*, *rps8/rpl14*, *trnL-UAA/trnF-GAA*, *trnG-UCC/trnR-UCU* va

psaA/ycf3 genetik hududlarda uchrashi aniqlangan.

iqlim o'zgarishining turli ssenariylari sharoitida model turlar sifatida *Poa bactriana* va *Poa bulbosa* populyatsiyalarining hozirgi va kelajakdagi areallari uchun bioiqlimiy modellashtirish amalga oshirilgan hamda asosiy bioiqlimiy omillar baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Farg'ona vodiysi florasida uchraydigan *Poa* turkumi turlarining elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan hamda ular bioxilma-xillik bo'yicha mintaqaviy (GMOCA, [www.gmoca.org](http://www.gmoca.org)) va global (GBIF, [www.gbif.org](http://www.gbif.org)) axborot platformalariga integratsiya qilish natijada Farg'ona vodiysi florasida uchraydigan *Poa* turkumi turlarining izohli konspekti tuzilib, ularning tarqalishiga doir ma'lumotlardan xalqaro miqyosda foydalanish imkoniyati yaratilgan;

turlarni chorvachilikni rivojlantirishdagi o'rnini hisobga olib model tur sifatida *Poa bactriana* turini turli iqlim ssenariylaridagi populyatsiyalarining hozirgi va kelajakdagi holatlari bo'yicha bioiqlimiy modellashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.**

qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarning nazariy asoslanganligi, olingan natijalarning respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda yetakchi ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi bilan ta'minlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning botanika sohasidagi vakolatli milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatiga joriy etilgani, dala tadqiqotlari davomida to'plangan gerbariy namunalarning O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondida saqlanayotgani va ishning davlat ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg'ona vodiysida tarqalgan *Poa* turkumi bo'yicha taksonomik tahlilni o'tkazilganligi, tirik o'simlik namunalari asoslangan morfologik hamda turlarni tarqalishiga oid fitogeografik tadqiqotlar, model turni turli iqlim ssenariylari bo'yicha bioiqlimiy modellashtirilganligi hamda filogenetik tadqiqotlar maqsadida turlardan DNK ajratib olish jarayonini optimallashtirilganligi va genom xaritalarini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Farg'ona vodiysi o'simliklar xilma-xilligi kadastri, vodiya o'simlik turlarini tarmoq xaritasini yaratish, chorvachilik maqsadlarida o'simlik resurslaridan barqaror foydalanish hamda "O'zbekiston Florasi"ning Poaceae oilasiga bag'ishlangan yangi nashrini tayyorlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan *Poa* turlarini tadqiq qilishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Poa* turkumi turlari bo'yicha fitogeografik tadqiqotlarni olib borish maqsadida 17 turga oid ma'lumotlar GBIF (Global Biodiversity Information Facility) ma'lumotlar bazasiga kiritilgan va joriy qilingan (Global biologik xilma-xillik ma'lumotlar bazasining 2025-yil 25-apreldagi 32-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Farg'ona vodiysida tarqalgan 17 ta turlarning tarqalishiga oid ma'lumotlarni xalqaro darajada foydalanish imkonini bergan;

muallif tomonidan terilgan 400 dan ortiq gerbariy namunalari O'zbekiston

Milliy gerbariysi (TASH) fondiga topshirilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 22-apreldagi 4/1255-989-son ma'lumotnomasi). Natijada, vodiylar hududidan yig'ilgan kamyob va endem turlarning yangi gerbariy namunalari noyob ob'ektning Markaziy Osiyo bo'limi kolleksiyasini boyitgan va turlarining taksonomiyasi, geografiyasi, ekologiyasi bo'yicha olingan yangi ma'lumotlar hamda turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari O'zbekiston florasining elektron ma'lumotlar bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi hamda zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarni ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan *Poa L.* turlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, Tadqiqot obyekti va metodlari”** deb nomlangan birinchi bobida turkum turlarining Markaziy Osiyoda va Farg'ona vodiysida olib borilgan tadqiqotlar tahlili, tadqiqotning obyekti va metodlariga bag'ishlangan.

Bobning birinchi bo'limida tadqiqot obyekti doirasida *Poa* turkumining Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston va Farg'ona vodiysi florasidagi o'rni, uning o'rganilish tarixi hamda mavjud ma'lumotlarning tanqidiy tahlili yoritildi. *Poa* Poaceae oilasining eng yirik va taksonomik jihatdan murakkab turkumlaridan biri bo'lib, Yer yuzida 580 dan ortiq turi ma'lum. Ularning asosiy xilma-xillik markazlari Yevrosiyo boreal florasida, Himoloy tog'lari, Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika hududlariga to'g'ri kelishi ko'rsatib berildi.

Markaziy Osiyo florasida *Poa* turkumi yetarlicha o'rganilmagani, tur soni bo'yicha adabiyotlarda sezilarli tafovutlar mavjud ekani aniqlandi. XX asr boshidan 1960-yillargacha bo'lgan klassik floristik manbalarda mintaqada bo'yicha 26–38 tur (Б.А.Федченко и др., 1932; В.П.Дробов, 1941; В.К.Пазий, 1968; П.Н.Овчинников и др., 1957 va boshq.) qayd etilgan bo'lsa, keyingi yillarda

butun Markaziy Osiyo turlar xilma-xilligi (Ф.Хасанов, 2015; Li and Tojibaev, 2025) va uning alohida mamlakatlari Qozog‘iston (С.А.Абдулина, 1999) va Qirg‘izistonning (Г.А.Лазьков, Г.Т.Султанова, 2014) turlar xilma-xilligi florasini qayta ko‘rib chiqish natijasida bir qator turlar sinonimlarga aylantirildi yoki boshqa turkumlarga birlashtirildi.

В. Пазий (1968) tomonidan keltirilgan 28 turdan 7 tasi (*P. densa*, *P. vvedenskyi*, *P. kokuensis*, *P. hissarica*, *P. fragilis* va boshqalar) mintaqa uchun endem yoki subendem hisoblanadi; bir qator turlar (*P. bactriana*, *P. lipskyi*, *P. calliopsis*, *P. tianschanica*, *P. attenuata* va b.) esa Eron, Himoloy va Sharqiy Osiyo bilan umumiy keng floristik aloqalarni aks ettiradi. Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasidan ta’riflangan ayrim turlar keyingi molekulyar-taksonomik tadqiqotlar natijasida yirik kompleks turlarning sinonimi sifatida qayta talqin qilingan.

Li va Tojibaev (2025) ma’lumotlari hamda zamonaviy elektron bazalar (POWO, 2025) tahliliga ko‘ra, Markaziy Osiyo uchun *Poa* turkumining taxminan 42 turi, shundan kamida 20 turi O‘zbekiston florasida uchrashi aniqlangan. Adabiyotlar tahlili *Poa* turlarining birlamchi va ikkilamchi xilma-xillik markazlari Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog‘lari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bobning ikkinchi qismida O‘zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) saqlanayotgan *Poa* turkumiga oid materiallar birinchi marotaba kompleks va tizimli ravishda tahlil qilindi. TASH — Osiyodagi eng yirik gerbariy kolleksiyalaridan biri bo‘lib, 1,5 milliondan ortiq fond materiallari orasida Poaceae oilasiga mansub 40 mingga yaqin, *Poa* turkumiga oid esa 37 turdan kam bo‘lmagan 4963 ta gerbariy namuna mavjudligi aniqlandi. Ushbu namunalar 9 mamlakatdan to‘plangan bo‘lib, ulardan asosiy qismi O‘zbekistonning tog‘li qismlariga tegishlidir. Tahlillar natijasida TASH fondida eng ko‘p uchraydigan namunalar to‘rtta turlar (*P. bulbosa* L., *P. litwinowiana* Ovcz., *P. relaxa* Ovcz. va *P. angustifolia* L.) qayd etilgan. Bir qator nomlarning (*P. pamirica*, *P. dschungarica*, *P. glabriflora*, *P. karatavica*, *P. tibetica* va boshq.) zamonaviy taksonomik manbalarda sinonimga aylantirilgani yoki boshqa turkumlarga ko‘chirilgani aniqlashtirildi. To‘plangan gerbariy kolleksiyalarining dinamikasi 1920–1960-yillar *Poa* turlarining intensiv o‘rganilgan davri bo‘lganini, 1970–2000-yillarda esa gerbariy namunalarini yig‘ilish faolligi keskin kamayganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari TK, MW (raqamli formatda) kabi yirik fondlar, shuningdek [www.gbif.org](http://www.gbif.org), [www.plantarium.ru](http://www.plantarium.ru) kabi ochiq manbalar va dala ekspeditsiyalarida yig‘ilgan 400 dan ortiq namuna hamda 950 ta dala yozuvlari yozilgan. Natijada Farg‘ona vodiysi florasida *Poa* turkumining 17 turi tarqalishi aniqlandi va mavjud ma’lumotlar bazasi 60 % ga boyitildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2021-2024-yillardagi ekspeditsiyalar davomida O‘zbekiston florasida uchun yangi tur - *P. tianschanica* (Regel) Hack. ex O.Fedtsch.ning Farg‘ona vodiysidagi yangi o‘sish nuqtalari qayd etildi.

Bobning uchinchi bo‘limida tadqiqot obyekti hamda tadqiqot ishini bajarish davomida foydalanilgan metodlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Farg‘ona vodiysi florasidagi *Poa* L. turkumining**



Sekvenslash natijasida *Poa* turlarining plastid genomlari 135 000–136 000 nj uzunlikda, LSC–SSC–IRa/b tuzilishiga ega ekani, GC tarkibi 38,3 % atrofida barqaror bo‘lishi aniqlandi. Genomlar 74–83 ta CDS, 8 ta rRNK va 38 ta tRNK genidan iborat bo‘lib, Poaceae oilasining umumiy plastid arxitekturasiga mos keladi(1-jadval).

1-jadval.

**P1-P17 namunalari xloroplast genomlarining asosiy tarkibiy qismlari.  
LSC-uzun yakka takror, SSC-kichik yakka takror, IR-teskari takror,  
GC - guanin va sitozin foizi, CDS- kodlovchi qismlari.**


N <sub>o</sub>	Tur	LSC uzunligi	SSC uzunligi	IR uzunligi	GC foizi	CDS soni
P1	<i>P. annua</i>	80.127	13.087	21.200	38,3 %	83
P2	<i>P. bactriana</i>	79.630	12.746	21.533	38,3 %	83
P3	<i>P. nemoralis</i>	79.576	12.698	21.554	38,3 %	83
P4	<i>P. palustris</i>	79.764	12.618	19.376	38,3 %	83
P5	<i>P. trivialis</i>	79.575	12.368	21.575	38,3 %	83
P6	<i>P. diaphora</i>	79.478	12.726	21.552	38,3 %	83
P7	<i>P. alberti</i>	79.772	12.727	21.555	38,3 %	83
P8	<i>P. litwinowiana</i>	79.774	12.771	21.552	38,3 %	74
P9	<i>P. angustifolia</i>	79.478	12.728	21.552	38,3 %	83
P10	<i>P. bucharica</i>	79.572	12.731	21.555	38,3 %	83
P11	<i>P. tianschanica</i>	79.743	12.727	21.555	38,3 %	83
P12	<i>P. relaxa</i>	79.758	12.768	21.552	38,3 %	74
P13	<i>P. pratensis</i>	79.527	12.728	21.555	38,3 %	83
P14	<i>P. supina</i>	80.126	13.112	21.210	38,3 %	83
P15	<i>P. bulbosa</i>	79.629	12.744	21.553	38,3 %	74
P16	<i>P. lipskyi</i>	79.769	12.728	21.556	38,3 %	83
P17	<i>P. alpina</i>	80.036	12.268	21.559	38,3 %	83

Sekvenslangan *Poa* turkumi turlarining genomlarini annotatsiya qilishda *Poa pratensis* L. (MT295102) NCBI xalqaro bazasidan yuklandi va asos sifatida foydalanildi. Jami 265 ta qism birgalikda xloroplast genomini tashkil etgan.

Quyida *Poa* turkumi turlarining xloroplast genomlari tarkibidagi A,G,C,T nukleotidlarining o`ziga hos xromatogrammalari keltirilgan (2-rasm).

MAFFT, MUSCLE, RAxML, PAUP\*, MrBayes dasturlarida bajarilgan tahlillar *Poa* turlarining tabiiy filogenetik guruhlanishini ko`rsatdi. Asosiy natijalar: To`liq xloroplast genomlar ITS markerlarga nisbatan yuqoriroq darajada ishonchli filogenetik topologiya beradi. *Poa annua* L. allopoliploid kelib chiqishga ega bo`lib, uning ajdod turlari sifatida *P. infirma* va *P. supina* tasdiqlandi. *P. relaxa* – *P. litwinowiana* orasida IR mintaqalarida duplikatsiya elementlari kuzatilgan. Turlar kladlarda BI/ML ko`rsatkichlari 98–100 % diapazonda bo`lib, topologiya yuqori qo`llab-quvvatlanadi. O`zbekiston hududida o`suvchi *Poa* turlarining evolyutsion aloqalari ilk bor plastid genom darajasida aniqlashtirildi. Bu o`zgaruvchanlik *Poa* turkumi evolyutsiyasida poliploidiya, gibridlanish va tarmoqli evolyutsiya jarayonlarining muhim rol o`ynaganini ko`rsatadi.

Bobning uchunchi bo`limida *Poa relaxa* Ovcz. gerbariy materialidan DNK ajratish uchun CTAB asosida modifikatsiyalangan protokol ishlab chiqildi va birinchi marotaba O`zbekiston materiali uchun muvaffaqiyatli moslashtirildi.



**2-rasm. *Poa* turkum turlarining xloroplast genamlari tarkibidagi A,G,C,T nukleotidlarining o`ziga hos xromatogrammasi**

DNK sifat ko'rsatkichlari: Konsentratsiya: 386 ng/μl; A260/A280 = 1.889 (yaxshi tozalangan DNK) va A260/A230 = 1.795 (ifloslanishlar minimal).

Bu natijalar *Poa relaxa* uchun DNK optimizatsiya protokoli yetarli darajada samaradorligini ko'rsatadi hamda kelgusida SSR, ITS, matK, rbcL va boshqa markerlar asosidagi tahlillar uchun imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida "**Farg'ona vodiysida tarqalgan *Poa L. turkumi turlarining fitogeografik tahlili***" deb nomlangan bobida turlarning botanik-geografik rayonlar, tog' tizmalari, turlarning balandlik mintaqalarida tarqalishi va to'r tizimli xaritalash bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.


Mazkur bobning birinchi bo'limi, Farg'ona vodiysi florasidagi *Poa* turkum turlarining botanik-geografik rayonlar bo'yicha tarqalish tahliliga bag'ishlangan. Farg'ona vodiysi botanik-geografik jihatdan tog'li O'rta Osiyo, Turon provintsiyalari tarkibiga kiradi (Tojibaev al., 2016). Farg'ona vodiysi hududi uchun biz keltirgan turlarning barchasi keng tarqalganligi aniqlandi. Biroq, okruglar kesimida ularning taqsimlanishi bir tekis emas (3-rasm).

Botanik-geografik rayonlar bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, *Poa* turkumiga mansub turlarning eng yuqori xilma-xilligi Janubiy Chotqol (15 tur) va Sharqiy Oloy (14 tur) rayonlarda qayd etilgan.

Shuningdek, Chorkesar (10 tur), G'arbiy Oloy (9 tur) va Qurama (8 tur) rayonlari, shuningdek Arslonbob va Mog'ultog' hududlari (har birida 6 tadan tur) nisbatan yuqori tur xilma-xilligi bilan tavsiflanadi.

Aksincha, Sari-Chelak (5 tur) hamda baland tog'li Shimoliy Turkiston va Aroshan rayonlarida (har birida 4 tadan tur) turkum turlarining xilma-xilligi

nisbatan past ekanligi aniqlandi. Bu holat mazkur rayonlarning Farg‘ona vodiysi doirasida egallagan hududlari kichikligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, ushbu hududlarda *Poa* turkumiga mansub turlarning xilma-xilligi nisbatan past darajada ekanligi qayd etildi.



**3-rasm. *Poa* turlarining botanik-geografik rayonlar bo‘yicha taqsimlanishi.**

Tadqiqot obyektlarining Farg‘ona vodiysida tarqalish qonuniyatlari ushbu hududning iqlim sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq. Turlar tarqalishining bunday xususiyati Farg‘ona vodiysining shimoliy va sharqiy qismlarida nisbatan salqin iqlim hamda yog‘in miqdorining ko‘pligi ustunligi bilan izohlanadi, bu esa *Poa* turkumiga mansub turlar uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratadi.

Aksincha, shimoliy-g‘arbiy (Chorkesar, Qurama, Aroshan) va janubiy-g‘arbiy (Shimoliy Turkiston, G‘arbiy Oloy) hududlar qurg‘oqchil sharoitlar, yuqori harorat va yog‘in miqdorining kamligi bilan tavsiflanib, ushbu turkumga mansub ko‘plab mezofit turlar uchun noqulay muhitni shakllantiradi.


Mazkur qonuniyat Farg‘ona vodiysining markaziy cho‘l hududlarida *Poa* turkumiga mansub turlarning deyarli uchramasligi bilan ham tasdiqlanadi. Ushbu hududlarda turlar faqat o‘zlashtirilgan va sug‘oriladigan yerlarida, asosan *Poa bulbosa* va *Poa pratensis* turlari ko‘rinishida qayd etilgan.

Farg‘ona vodiysini o‘rab turgan tog‘ tizmalari orasida tur xilma-xilligi jihatidan Oloy (14 tur) va Chotqol (15 tur) tizmalari yetakchi o‘rinni egallaydi, bu holat ushbu tizmalarning floristik boyligi yuqoriligi bilan uzviy bog‘liq (Камелин, 1973; Tojibaev, 2010; Лазьков, Султанова, 2014).

Keyingi o‘rinlarda Farg‘ona (10 tur), Qurama (8 tur), Turkiston (5 tur) va Mog‘ultog‘ (4 tur) tizmalari joylashgan. Shu bilan birga, maydoni nisbatan kichik bo‘lgan ayrim tog‘ tizmalari, jumladan Atoynok tizmasi (qisman vodiyning tashqarisiga chiqmaydigan), *P. tianschanica*, *P. lipskyi* va *P. annua* kabi ayrim turlar uchrashi bilan ajralib turadi.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limi turlarning balandlik mintaqalarida

tarqalishiga bag‘ishlangan. Ushbu bo‘limda *Poa* turkum turlarining balandlik gradiyenti bo‘yicha har 100 metrda tahlil amalga oshirildi. Xususan balandlik gradiyentlari bo‘ylab turlar xilma-xilligining o‘zgarishi bevosita yog‘in miqdori va harorat bilan uzviy bog‘liq (Sanjerehei 2019). Shunga ko‘ra, disertatsiyada balandlikning o‘zgarishi turlar xilma-xilligiga ta‘sirini o‘rganib chiqildi (4-rasm).



**4-rasm. Tadqiqot hududida *Poa* turkum turlarining balandlik gradiyentlari bo‘yicha taqsimlanishi.**


Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, *Poa* turkumiga mansub turlar o‘rta balandliklarda (ayniqsa 1100–1900 m diapazonida) maksimal xilma-xillikka ega. Bu holat ekologik sharoitlarning optimal kombinatsiyasi — o‘rtacha harorat, mo‘tadil yog‘in va biotik omillar bilan izohlanadi. Xilma-xillik past va yuqori balandliklarda sezilarli kamayadi (turlar soni eng kam (1–3) past (300–500 m) va yuqori (3100–3400 m) balandlik diapazonida), bu esa ekstremal iqlimiy sharoitlar va tor ekologik nisalarga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar *Poa* turlarining ekologik moslashuvchanligi va fitogeografik taqsimotini chuqurroq o‘rganish uchun asos yaratadi.

Mazkur bobning uchinchi bo‘limi Farg‘ona vodiysi florasida *Poa* turkumiga mansub turlarni to‘r tizimli kartografiyalash tahliliga bag‘ishlangan. O‘zbekiston florasida *Poa* turkumiga mansub turlarning tarqalishini to‘r xaritalar asosida o‘rganish zamonaviy floristik tadqiqotlarning ajralmas qismi hisoblanadi (K.Sh.Tojibaev et al., 2022). O‘simliklar xilma-xilligini to‘r tizimli kartografiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan yirik loyiha doirasida mamlakat hududi \*\*har biri 5 × 5 km o‘lchamdagi 19 420 ta indeks (kvadrat)\*\*ga ajratilgan. Har bir kvadrat doirasida georeferensiyalangan ma’lumotlar ikki asosiy ko‘rsatkich — turlar xilma-xilligi (*species richness*) va yig‘malar zichligi (*collection density*) bo‘yicha jamlanadi.

Farg‘ona vodiysi (O‘zbekiston Respublikasi hududi) doirasida olib borilgan ushbu tadqiqotlar mazkur loyiha tarkibiy qismi bo‘lib, *Poa* turkumiga mansub

turlarni turlar xilma-xilligi (species richness) va yig‘malar zichligi (collection density) ko‘rsatkichlari asosida to‘r tizimli kartalashga yo‘naltirilgan.

Boshlang‘ich ma‘lumotlar sifatida 1871–2024-yillarda yig‘ilgan 17 turga mansub 115 ga yaqin gerbariy namunalari (TASH, TK, MW, LE fondlari), shuningdek, muallif tomonidan 2021–2024-yillarda dala tadqiqotlari davomida to‘plangan 400 ga yaqin namunalar hamda turlarning o‘shish nuqtalarini aks ettiruvchi 1500 ga yaqin geografik koordinatalardan foydalanildi (5-rasm).



**5-rasm. Farg‘ona vodiysi (O‘zbekiston hududi) florasidagi *Poa* turlarining xilma-xillik (species richness) va yig‘malar zichligi (collection density) bo‘yicha to‘r tizimli xaritasi**

To‘r tizimli kartalashning asosiy natijalariga ko‘ra, tadqiqot hududida “0” toifaga mansub indekslar aniqlanmadi, bu holat *Poa* turkumiga mansub turlarning yuqori ekologik plastikligi bilan izohlanadi.

Indekslar kesimida turlar xilma-xilligining (species richness) maksimal qiymati 13 tur, yig‘malar zichligi (collection density) esa 53 ga teng bo‘ldi.

Bitta tur bilan ifodalangan indekslar (asosan *Poa bulbosa*) 681 ta (79 %)ni tashkil etdi; ikki turdan iborat indekslar (asosan *P. annua*, *P. nemoralis*, *P. lipskyi*, *P. pratensis*, *P. angustifolia*, *P. glauca*) — 38 ta; uch turdan iborat indekslar esa 6 ta bo‘ldi.

So‘nggi guruh indekslar Qurama, Janubiy Chotqol va Sharqiy Oloy botanik-geografik rayonlari uchun xosdir. Yig‘malarining zichligi bo‘yicha tuzilgan to‘r xarita ham uchta darajaga bo‘lingan. Jumladan, kam (1-5) zichlikdagi indekslar 725 ta bo‘lib, ular tadqiqot hududining asosiy maydonlarini egallaydi. O‘rtacha zichlikga (6-10) ega indekslar 68 tani, yuqori zichlikga (10<) mansub indekslar esa 69 tani tashkil qildi. Yig‘malar zichligining yuqori ulushi Janubiy Chotqol, Sharqiy Oloy va Chorkesar botanik-geografik rayonlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Indekslar kesimida species richness bilan collection density ko‘rsatkichlarini deyarli bir-biriga mos kelishi tabiiy holat hisoblanadi va tegishli hududlardagi tadqiqotlarning intensivligi bilan izohlanadi.

Disertatsiyaning “Farg‘ona vodiysida *Poa* L. turkumi turlarning tarqalishini bioiklimiy modellashtirish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida,

turkumi turlarning tarqalishining bioiqlimiy modellashtirish natijalari keltirib o‘tilgan.


Bioiqlimiy modellashtirish uchun model obyektlar sifatida bir nechta turlar tanlandi.

Ulardan biri — *Poa bactriana* turi bo‘yicha olingan modellashtirish natijalari yillik harorat amplitudasi (Bio7), yillik yog‘in miqdori (Bio12) hamda eng issiq chorak yog‘inlari (Bio18) turning tarqalishini belgilovchi asosiy omillar ekanini ko‘rsatdi.

Hozirgi sharoitda turning optimal yashash hududlari asosan Markaziy Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Xitoy va Mo‘g‘ulistonning tog‘li mintaqalarida jamlangan bo‘lib, 1500–4000 m balandlik diapazoni eng qulay zona sifatida baholandi.

RCP2.6 va RCP8.5 iqlim senariylari asosida tuzilgan bashoratlar 2050-yilga kelib turning potensial areallari sezilarli darajada qisqarishini ko‘rsatadi. Bu jarayon havo haroratining oshishi, yog‘in miqdorining kamayishi hamda qurg‘oqchilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

*Poa bulbosa* turining modellashtirilgan tarqalish xaritalari uning Farg‘ona vodiysi uchun muhim indikator tur sifatida iqlim o‘zgarishiga sezgirligini ko‘rsatdi. MaxEnt modeli yuqori aniqlik (AUC=0.995–0.996) bilan ishladi. Joriy davrda turning optimal maydoni 36 971 km<sup>2</sup> bo‘lsa, RCP2.6 va RCP8.5 senariylarida bu ko‘rsatkich mos ravishda 32 009 km<sup>2</sup> va 30 911 km<sup>2</sup> gacha qisqarishi taxmin qilindi. Balandlikning optimal diapazoni 3368 m dan 3461–3722 m gacha ko‘tarilishi kuzatildi. Bu jarayon, N.N. Svelyov tomonidan ilgari surilganidek, *Poa* turkumida poliploidiya baland tog‘ sharoitlariga moslashuvni kuchaytirishini tasdiqlaydi (6-rasm).



**6-rasm. *Poa bulbosa* uchun iqlim senariylari bo‘yicha potensial tarqalish maydonlari: qizil – yuqori darajada yaroqli; to‘q sariq – o‘rta darajada yaroqli hududlarni ifodalaydi.**

Umuman olganda, bioiqlimiy modellashtirish natijalari *Poa* turkumining ikki vakili iqlim o'zgarishiga sezgir bioindikator turlar qatoriga kirishini ko'rsatadi. Ularning kelajakdagi arealining qisqarishi, ayniqsa past tog' va tog'oldi mintaqalarida ekologik yuklamaning ortishi bilan yanada kuchayishi ilmiy asoslangan ravishda isbotlandi. Olingan natijalar Farg'ona vodiysida va Markaziy Osiyoda o'simliklar xilma-xilligini saqlash, himoya qilish va barqaror foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Olingan natijalarga ko'ra atrof-muhit o'zgaruvchilarining taqsimotidagi ahamiyati MaxEnt dasturi asosida Jackknife testi orqali tahlil etildi va turlarning tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy bioiqlim omillari aniqlandi. Iqlim senariylari bo'yicha hududlarni yaroqlilik ko'rsatkichlari keltirildi (2-jadval).

## 2-jadval

### *Poa bulbosa* o'sishi uchun optimal sharoit mavjud hududlar.

Davrlar	Optimal maydon (km <sup>2</sup> )	Optimal maydon %	Umumiy maydon(km <sup>2</sup> )
<b>Current (2000-2020)</b>	36971	34	83697
<b>RCP 2.6 (2070)</b>	32 009	38	83 697
<b>RCP 8.5 (2070)</b>	30 911	37	83 697

Maxent tomonidan yaratilgan modelga ko'ra, *Poa bulbosa* o'sishi uchun optimal sharoit joriy davrga nisbatan kelajakda qisqarishi kuzatildi. Minimal va maksimal emissiya iqlim senariylari bir-biri bilan solishtirilganda, RCP\_2.6 ga nisbatan RCP\_8.5 senariysida qulay muhitning keskin pasayishi yuz berdi.

Har ikki senariy bo'yicha ham haroratning 0,4–1,6 °C va 1,4–2,6 °C ko'tarilishi bevosita Bio4, Bio7, Bio8, Bio15, Bio17, Bio18, Bio19 kabi bioiqlim omillarining ta'siri ostida amalga oshganligi aniqlandi. IPCC oltinchi hisobotiga (AR6) ko'ra, yillik o'rtacha havo harorati RCP\_2.6 (2061-2080) senariyda 0.4–1.6 °C va RCP\_8.5 (2061-2080) iqlim senariysi bo'yicha esa 1.4–2.6 °C oralig'ida ko'tarilishi, turlarning morfologik belgilar bilan bevosita korrelyativ bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatdi.

## XULOSALAR

“Farg'ona vodiysida tarqalgan *Poa* L. (Poaceae) turkumi (taksonomik tarkibi, geografiyasi va ekologiyasi)” mavzusidagi dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Dala tadqiqotlari natijalari hamda gerbariy materiallarni tanqidiy tahlil qilish asosida ilk bor Farg'ona vodiysi florasida *Poa* turkumining 17 turdan iborat zamonaviy taksonomik tarkibi aniqlandi.

2. O'zbekiston florasida uchun ilk bor *Poa tianschanica* (Regel) Hack. ex O. Fedtsch. turi qayd etildi. Mazkur holat tadqiqot hududining shimoliy boreal floralari, shuningdek Janubi-Sharqiy Osiyo florasida bilan yaqin floristik aloqalarga ega ekanini tasdiqlaydi.

3. *Poa* turkumiga mansub turlar bo'yicha amalga oshirilgan kompleks tahlil natijalari “O'zbekiston florasida”ning yangi nashri formatida taqdim etildi va

Farg‘ona vodiysi florasida uchraydigan 17 tur bo‘yicha dolzarb taksonomik, ekologik hamda geografik ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan izohli konspektni qamrab oldi.

4. *Poa* turkumiga mansub turlar plastid (xloroplast) genomining molekulyar-genetik hamda kompleks kartografik tadqiqotlari amalga oshirildi.

*Poa tianschanica* turi misolida xloroplast genomining tuzilishi tavsiflanib, unda 85 ta kodlovchi gen mavjudligi hamda yuqori nukleotid o‘zgaruvchanlikka ega hududlar aniqlandi.

Annotatsiya jarayonida NCBI bazasida joylashtirilgan *Poa pratensis* turining to‘liq xloroplast genomi (MT295102) referens sifatida foydalanildi.

5. *Poa* turkumining eng katta turlar xilma-xilligi Janubiy Chotqol, Sharqiy Oloy va Chorkesar botanika-geografik mintaqalarida kuzatiladi, turlarning asosiy konsentratsiyasi esa pastki tog‘ kamarida (1100–1900 m) joylashgan bo‘lib, bu Markaziy Osiyo sharoitida turkumning balandlik optimumi haqidagi ilgari shakllangan g‘oyalarni qisman qayta ko‘rib chiqish kerakligini bildiradi.

6. To‘r tizimli xaritalash natijalari tadqiqot hududida bir yoki ikki tur bilan ifodalangan indekslar ustunligini ko‘rsatdi. Ushbu holat ayrim taksonlarning, xususan *Poa bulbosa* turining yuqori ekologik moslashuvchanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, gerbariy yig‘malarining eng yuqori zichligi turlar xilma-xilligi yuqori bo‘lgan hududlarga to‘g‘ri kelib, bu mazkur hududlarning yaxshi o‘rganilganligini ko‘rsatadi.

7. Bioiqlimiy modellashtirish natijalari *Poa* turkumiga mansub turlarda poliploidiya darajasi bilan ekstremal muhit sharoitlarini o‘zlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi ilgari bildirilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi.

Xususan, *Poa bulbosa* turi bo‘yicha Farg‘ona vodiysi hududida iqlim isishi sharoitida uning potensial tarqalish maydonlari qisqarishi, bu jarayon asosan quyi geomorfologik bosqichlar hisobiga yuz berishi aniqlangan.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.B.22.05  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**АБДУЛЛАЕВ ШУХРАТЖОН СОЛИЖОНОВИЧ**

**РОД *POA* L. (POACEAE) ВО ФЛОРЕ  
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ  
(ТАКСОНОМИЧЕСКИЙ СОСТАВ, ГЕОГРАФИЯ И ЭКОЛОГИЯ)**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/B580**

Диссертационная работа выполнена в Наманганском Государственном Университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Тожибаев Комилжон Шаробитдинович**  
доктор биологических наук, академик

**Официальные оппоненты:**

**Хамраева Диловар Толибджоновна**  
доктор биологических наук

**Махмудов Валиджон**  
кандидат биологических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Джизакский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.B.22.05 при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160119, г. Наманган, улица Бабуршах, дом. 161. Зал заседаний Наманганского государственного университета. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс (+99869) 228-85-02, e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бабуршах, дом. 161. Тел.: (+99869) 228-85-01).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года.

(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года)

**А.Э.Зайнабиддинов**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

**Х.Р.Хошимов**

Ученый секретарь научного совета, по присуждению ученых степеней, PhD по биологическим наукам

**Д.Б.Дехконов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., доцент

## ВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PHD))

### **Актуальность и необходимость темы диссертации.**

В мировом масштабе выявлено 36 «горячих точек» биологического разнообразия (*biodiversity hotspots*), которые занимают лишь 2,3% поверхности Земли. Вместе с тем именно в этих регионах сосредоточена значительная часть эндемичных и редких видов растений, находящихся под угрозой исчезновения. К числу таких «горячих точек» относится горные хребты Тянь-Шань и Памиро-Алай, отличающиеся исключительно высоким уровнем флористического разнообразия и эндемизма. В этой связи сохранение глобального и регионального биологического разнообразия, оценка воздействия антропогенных факторов на природные ландшафты, а также развитие международного научного сотрудничества являются одними из приоритетных направлений современной экологической стратегии.

В условиях современной глобализации в мире активно проводятся научные исследования растительных сообществ на основе современных научных подходов в регионах, чувствительных к изменениям климата, характеризующихся сокращением природных ландшафтов и высоким уровнем антропогенной нагрузки. В последние десятилетия в результате демографического роста и расширения хозяйственной деятельности площадь природных экосистем значительно сократилась, тогда как доля агро- и урбаноландшафтов существенно возросла. Это, в свою очередь, оказывает прямое влияние на состав флоры и устойчивость популяций. В этой связи разработка эффективных механизмов сохранения биологического разнообразия, углублённое изучение элементов природной флоры, находящихся под антропогенным воздействием, а также усиление регионального сотрудничества рассматриваются как одни из приоритетных направлений современной науки.

На сегодняшний день в Республике Узбекистан последовательно реализуются фундаментальные и прикладные исследования, направленные на подготовку обновлённого издания национальной флоры Узбекистана, картографическое представление ареалов растений на основе сеточной (grid) системы, усиление мониторинга адвентивных и инвазивных видов, а также систематизацию флоры Ферганской долины как территории с риском утраты биоразнообразия на основе цифровых платформ. В частности, в соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «О стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы»<sup>1</sup>, изучение современного таксономического разнообразия и фитогеографических особенностей представителей рода *Poa*, их ареалов с применением ГИС-картирования и биоклиматического моделирования приобретает актуальное научно-практическое значение в контексте комплексного изучения флоры Узбекистана.

---

<sup>1</sup> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «Об утверждении стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы»

Результаты данной диссертации в определённой степени будут способствовать реализации задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан от 21 сентября 2016 года № 409 «Об охране и использовании растительного мира», Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 6 мая 1995 года № 82-I «О присоединении Республики Узбекистан к Конвенции о биологическом разнообразии, подписанной в 1992 году в Рио-де-Жанейро», а также Постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 ноября 2018 года № 914 «О ведении государственного учёта объектов растительного и животного мира, объёмов их использования и государственного кадастра» и от 19 декабря 2018 года № 1034 «О мерах по подготовке, изданию и ведению Красной книги Республики Узбекистан», а также другими соответствующими нормативно-правовыми актами.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

